

Kudratov Akmaljon Ibodillayevich,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
akademik litseyi direktori

O'ZBEK PSIXOLOGLARI TADQIQOTLARIDA MA'NAVIY EHTIYOJLARNI O'RGANISHNING ILMIY- NAZARIY TALQINI

УЎК: 159.9.072.422

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2024_ISSUE_9_3](https://doi.org/10.34920/so/vol_2024_issue_9_3)

KUDRATOV A.I. O'ZBEK PSIXOLOGLARI TADQIQOTLARIDA MA'NAVIY EHTIYOJLARNI O'RGANISHNING ILMIY-NAZARIY TALQINI

Mazkur maqolada mamlakatimiz psixolog olimlari tomonidan shaxs ehtiyojlari ilmiy va nazariy jihatdan o'rganilganlik holati yoritilgan. Shuningdek, ma'naviy ehtiyojlarning o'rganish bo'yicha turli qarashlari va yondashuvlari keltirib o'tilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: ehtiyoj, ehtiyoj turlari, moddiy ehtiyoj, ma'naviy ehtiyoj, transformatsiya.

КУДРАТОВ А.И. НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИЗУЧЕНИЯ ДУХОВНЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ В ИССЛЕДОВАНИЯХ УЗБЕКСКИХ ПСИХОЛОГОВ

В данной статье описывается состояние научно-теоретического изучения потребностей личности психологами нашей страны. Также представлены различные взгляды и подходы к изучению духовных потребностей.

Ключевые слова и понятия: потребность, виды потребности, материальная потребность, духовная потребность, преобразование.

KUDRATOV A.I. SCIENTIFIC AND THEORETICAL INTERPRETATION OF THE STUDY OF SPIRITUAL NEEDS IN THE RESEARCH OF UZBEK PSYCHOLOGISTS

This article describes the state of scientific and theoretical study of the needs of the individual by psychologists in our country. Various views and approaches to the study of spiritual needs are also presented.

Key words and concepts: need, types of need, material need, spiritual need, transformation.

Kirish. Respublikamizda so'nggi yillarda shaxsning ma'naviy taraqqiyoti va shu boradagi ehtiyojlarni ta'minlash, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, jumladan, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonda "...yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, ularni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash...".¹ ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Buning natijasida yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ularni qiziqish va ma'naviy ehtiyojlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish imkoniyatlari yaratildi.

O'zbekistonda shaxs ma'naviy ehtiyojlarining transformatsiyasining sabablari, oqibatlari, muammolar va yechimlarini ilmiy-nazariy tahlili batafsil o'rganilmagan. Jahon taraqqiyot tendensiyalari va shaxs ma'naviy ehtiyojlarining transformatsiyasi ta'siri, uning shaxs ehtiyojlarining o'zgarishiga sabab bo'layotganining oqibatlar buning xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan o'rganilganligini ilmiy tahlil etilgan.

Mavzuning dolzarbligi mamlakatimiz olimlarning shaxs ehtiyojlari va uning transformatsiyasi doirasida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, bu borada E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova, N.S.Safoev, D.G'.Muxamedova, R.S.Samarov, E.N.Sattarov, X.M.Alimov, M.X.Fayziyeva, Sh.M.Ibragimov va boshqalar tomonidan o'rganish sohasida bir qator nazariy va amaliy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari olib borilganliklarini e'tirof etishimiz mumkinligi bilan belgilanadi.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

XIX asr va XX asr boshlarida mamlakat psixologlari ehtiyojning oqilona sog'lom fikrlilik jihatini ijtimoiy zaruriyat, jamiyat manfaatlari uchun mehnat qilish, shaxs qobiliyatlari va ehtiyojlarining tabiiy (uyg'un), hartomonlama, universal va yaxlit rivojlanishi bilan bog'lab tushuntirib bergan. Ushbu fikrlarga asoslanib, zamonaviy tadqiqotlar oqil ehtiyojlar – amalga oshirilishi hayotiy zaruriyat bo'lgan ehtiyojlardir degan fikrga e'tibor qaratilmoqda², chunki ular inson hayot faoliyati uchun sharoitlarning mavjudligini bo'lishini ta'minlaydi; b) shaxsning tegishli, mos ravishda, hamohang, tabiiy rivojlanishiga yordam beradi; v) jamiyat ehtiyojlariga zid emas va uning taraqqiyotiga yordam beradi. Yuqorida keltirilgan fikrlarning to'g'riligini tan olib, ushbu muammoning murakkabligini ta'kidlab o'tish lozim.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, bunday psixologik murakkablik, hartomonlamalik va hamohanglik, tabiiylik tushunchalari yetarli darajada o'rganilmagan va shu sababdan ularga murojaat qilinganda har doim ham u yoki boshqa muayyan konkret savollarga to'laqonli javob olishning imkoni yo'q. Chunki uning psixologik jihatlariga kam e'tibor berilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'rganilayotgan muammoning tahlil qilish, ba'zi olimlar ehtiyojlarni mehnat bilan qo'shgan hissasi bilan bog'lash, korrelyatsiya qilish kabi mezonning yetarli emasligiga e'tibor qaratish va amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti o'zbek psixolog olimlarining tadqiqotlarida ma'naviy ehtiyojlarni o'rganish borasida amalga oshirgan ilmiy izlanishlarini o'rganish jarayoni tanlandi.

Tadqiqotda tizimlilik, qiyosiy-mantiqiy tahlildan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik manbaini nazariy tahlil metodidan foydalanildi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. - <https://lex.uz/uz/docs/5793261>

² Sattarov E.N. Alimov X.M. Boshqaruv muloqoti. - T. 2004.107- b.

Asosiy qism.

Yetuk olim E.G'oziyev huquqiy, demokratik jamiyat kishisi shaxsini shakllantirishga nisbatan qo'yilayotgan eng muhim talablardan biri unda mehnat qilish ehtiyojini, mehnatdan faxrlanish tuyg'usini va undan lazzatlanish hisini tarkib toptirishdan iboratdir. Mehnatga nisbatan ehtiyojning vujudga kelishi sanoatda va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash, mehnat faoliyati unumdorligini oshirish, ish vaqtidan oqilona foydalanish imkoniyatini yaratadi va faqat mehnatdagina o'z imkoniyatini namoyon etuvchi, bunyodkor, vatanparvar, fidoyi shaxslarni shakllantiradi. Kishilarning iqtisodiy ehtiyojlarini qondiruvchi, ba'zan og'ir va zerikarli tuyulgan mehnat turi vatanparvar, komil insonlikka intiluvchi shaxs uchun quvonch, qoniqish, hatto rohat-farog'at his-tuyg'ularining manbaiga aylanishi mumkin.

Gap shundaki, agar faqat ushbu mezonga asoslanib yondashilganda, agar spirtli ichimliklar, tamaki, giyohvand moddalar va hokazolarga qo'shilgan mehnat hissasi doirasida qondiriladigan bo'lsa, ularga bo'lgan ehtiyojlarni ham oqilona deb tan olish lozim¹.

E.G'oziyevning fikriga ko'ra, ikkilamchi harakatga keltiruvchi, undash kuchlari, harakatga keltiruvchi kuchlar shunday birlamchi kuchlar asosida o'zlashtiriladi, egallanadi va ularning rivojlanishi uchun, ularning "orqasida ularning asosi bo'lmish tug'ma harakatlantiruvchi kuchlarning funksiyalari yashirin old qismi, peshtoq'i bo'lib sifatida xizmat qiladi"².

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan yetakchi psixolog olimlarning shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini o'rganish masalasiga doir ilmiy-nazariy qarashlari yoshlarni o'quv faoliyati bilan shug'ullanishlarini ilmiy asosli tashkil etishda, ularni hayotga to'g'ri yo'nalganligi va ma'nan barkamolligini ta'minlashda, shaxs psixologiyasiga xos qadriyatlarini inobatga olishda, ma'naviy sohalar bilan bog'liq milliylik va mil-

liy mentalitetimizni saqlash hamda avaylab-asrashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv faoliyati motivatsiyasi muammosi MDH davlatlari qatori respublikamizda ham ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimlar tomonidan keng miqyosda o'rganib kelinmoqda. Jumladan, keyingi yillarda mazkur ilmiy muammolarning turli jabhalariga nisbatan qiziqish yanada kuchayib bormoqda. Bunga yaqqol misol sifatida respublikamiz miqyosida ushbu muammo yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borayotgan taniqli psixolog olimlarni ta'kidlab o'tish joizdir. Bular sirasiga respublikamizda psixologiya fanining rivojlanishiga amaliy va nazariy hissasini qo'shib kelayotgan M.G.Davletshin rahbarligidagi uning shogirdlari A.Q.Saitova, F.I.Haydarovlar hamda E.G'G'oziyev va E.Z.Usmonova, V.A.Tokareva, A.A.Fayzullayev, R.Asomova, U.Jumayev va boshqalarning ushbu muammo yuzasidan olib borgan tadqiqotlarini kiritishimiz mumkin.

Keyingi o'n yilliklar mobaynida M.G.Davletshin rahbarligida ushbu muammo yangicha ilmiy asosda talqin qilinib, keng ko'lamda o'rganilmoqda. M.G.Davletshinning fikrlariga ko'ra, O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlar har xil sohaning mazmuniga ongli ravishda yondashuvi orqali, ularni mumkin qadar ertaroq, to'g'ri va oqilona tasavvur qiladi. M.G.Davletshin konsepsiyasidan kelib chiqqan holda olib borilgan tadqiqotlardan biri A.Q.Saitovanning «O'smir yoshidagi o'quvchilarning o'quv motivlarini va qadriyatlarini o'rganish»ga bag'ishlangan ishdur³. Bu ishda muallif o'smir yoshining xususiyatlariga tayangan holda bir qator xulosalarga kelgan. Xususan tadqiqotchi fikriga ko'ra, o'smirlar o'quv faoliyatida potensial hisoblangan motiv o'z-o'zini namoyon qilish motividir; o'quv faoliyati o'smir o'quvchilarda o'z-o'zini takomillash-tirishga, bu esa o'quv faoliyati bilan bog'liqdir. Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda shaxsdagi qadriyatlar yo'nalganligining o'quv faoliyatga bog'liqligi masalalari tadqiq qilinadi.

¹ Ибрагимов Ш. Наша реальность и как её изменить. - Бишкек. 2008.178 б.

² G'oziyev E. G., Jabborov A. M. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. -T.: 2003. - B.55.

³ Saitova A.Q. O'smir yoshidagi o'quvchilarning o'quv motivlarini va qadriyatlarini o'rganish. Toshkent, 2000. -B.133.

E.G'.G'oziyev tadqiqotlarida o'smir o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash jarayonlari haqida mulohaza yuritiladi. Tadqiqotchi o'quv faoliyatini boshqarishning diagnostik metodini ishlab chiqib, psixologiya fanining kam o'rganilgan sohalaridan biri bo'lgan o'qish faoliyatini boshqarish muammosining nazariy va amaliy, empirik tomonlarini yoritib beradi¹.

Shuningdek, mazkur tadqiqotlarda o'qish va o'qitish jarayoni uchun tavsiyanoma ishlab chiqilgan, o'z-o'zini anglash bosqichlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

A.A.Fayzullayev ilmiy tadqiqotlarida shaxsning motivatsion o'z-o'zini boshqarishning turli tuman omillari ham ko'rib chiqilgan. Aniqlangan bu omillar shaxs motivatsiyasining xususiyatlariga motivatsion boshqarishning amalga oshirish usullari va natijalariga tegishlidir. Bundan tashqari motivasion tuzilmalarning shaxs tomonidan obyektivlashtirish va o'z motivatsiyasini boshqarishdagi turli psixologik strategiya va usullari masalalari ham aniqlab berilgan. Shaxsning hayot faoliyatida motivatsion o'z-o'zini boshqarishning boshqa bir qator sohalarini ham o'rganilgan².

E.Z.Usmanovning ilmiy tadqiqotida o'quvchilarning o'quv faoliyati jarayonidagi qarama-qarshilik, motivatsiya, ijod va shaxs muammolari o'rganilgan. Tadqiqot davomida ikki asosiy motivatsiya toifasining munosibligini tushunish muhim bo'lgan, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini odamda tashqi motivatsiyaga kiritiladi³.

F.I.Haydarovning "Qishloq maktabi o'quvchilarida o'qish motivlarining shakllanishi" nomli ilmiy izlanishlarida o'quv motivlari ularning xususiyatlari, o'qitish jarayonida ijobiy va salbiy motivlarning ta'siri keng qamrovda o'rganilgan. Shuningdek, muallif o'quvchilarning yosh xususiyatlariga bog'liq holda o'qish motivlarini namoyon bo'lishining

regional tafovutlarni o'rganishga asosiy e'tiborni qaratgan. Muallifning ishlariga nazar tashlar ekanmiz, o'qish motivlarini bir qator turkumlarga ajratgani, ya'ni obro'ga intilish, kasbga qiziqish, muvaffaqiyatga erishish va boshqalarni yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv, subyektiv omillarni, shuningdek rivojlanish mexanizmlarini ishlab chiqqanligini ko'ramiz mumkin⁴.

Jumladan, G'.B.Shoumarov o'z tadqiqotlarida yoshlar kamolotida ma'naviy ehtiyojlarining o'rniga, shaxsning jismoniy sog'lom, ruhan baquvvat, o'quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishida ma'naviy ehtiyojlarni transformatsiyasining o'rni muhim ekanligiga alohida e'tibor berib o'tganligini ko'ramiz. Shuningdek, muallifning shaxs ehtiyojlarining barqaror rivojlantirish muammosiga doir sobiq ittifoq va xorijiy mamlakatlar psixologiyasidagi turli qarashlar, yondashuvlarga tahliliy va tanqidiy yondashuvlarini ham kuzatamiz⁵.

V.M.Karimova yoshlarni oilaga tayyorlashda ma'naviy ehtiyojlarni o'rni, jamiyatda shaxs xohish-istaklarini qoldirishga doir konsepsiyasi, ijtimoiy munosabatlar orqali shaxs ehtiyojlarining rivojlantirish g'oyalari, kichik va katta guruhlarda ma'naviy ehtiyojlarni barqarorlashtirishda psixologik xizmat ko'rsatishning ahamiyati muammolari bilan atroflicha shug'ullanganligini guvohi bo'lamiz⁶.

A.M.Jabborov tadqiqotlarida psixologik xizmatning sport jamoalari va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va sportda shaxs takomillashuvidagi muhim xususiyatlarning psixologik mohiyatini yoritishdagi ilmiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik xizmatni sport sohasida joriy etish sportchi hayoti, faoliyati, kamol topishi va rivojlanishida zarur jismoniy va tarbiyaviy psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Muallifning ilmiy izlanishlarida shu bilan birgalikda, psixologik xizmatni guruhlari, jamoalar va etnik qatlamlarning metodologik asoslari, ilmiy-nazariy jabhalari, chet el va mamlakatimiz

¹ G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.- 488 b.

² Fayzullayev A.A. Motivatsionnaya samoregulyatsiya lichnosti. -Tashkent. Fan, 1987, -S.133

³ Usmanova E.Z. Motivatsionno-emotsionalnaya regulyatsiya mishleniya v usloviyax intellektualnogo konflikta. –Tashkent. O'qituvchi, 1993. -s.100

⁴ Haydarov F.I. Qishloq maktabi o'quvchilarida o'qish motivlarining shakllanishi. -Toshkent, 1987. -B.133

⁵ Shoumarov G'.B. O'zbekiston ta'lim tizimida psixologik xizmat muammolari. –T.: 1998. -B.13-15.

⁶ Karimova V.M. Salomatlik psixologiyasi. - T.: Yangi asr avlodi. 2005. -71 b.

psixologlarining psixologik xizmatga nisbatan yondashuvlari, uning sport faoliyatida ta'siri, muayyan mezonlarga asoslangan holda tasniflanishi, psixologik xizmatning tatbiqiy jihatlari o'ld ilmiy- nazariy fikrlari va tahlillarini uchramiz¹.

Sh.R.Barotov psixologik xizmat yo'nalishini mamlakatimizda keng targ'ib qilinishi va unga doir ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy mambalarni yaratgan olim sifatida o'z o'rniga ega hisoblanadi. U bu yo'nalishda yaratgan ilmiy maktabning asosiy vazifasi jamiyatda va turli jamoalarda shaxs ehtiyojlarini to'g'ri qondirilishini ilmiy metodologik asoslari bilan birga, jamoa a'zolarining o'ziga xos jihatlari va kamoloti bilan bog'liq sog'lom turmush tarzining muhim tomonlarini ilmiy asoslashdan iborat bo'lgan. Shuningdek, u jamoa a'zolarida dunyoqarashi, e'tiqodi, qiziqishlari va kasbiy motivatsiyasining o'rnini va ahamiyati ancha muhim ekanligini yetarlicha ilmiy dalillar bilan asoslagan².

Z.T.Nishanovanning izlanishlarida shaxs motivlarining rivojlanish, uning tamoyillari, psixologning maslahat berish orqali beqaror ehtiyojlarni shakllantirish to'g'risida batafsil to'xtalib o'tgan. Muallif talabalar faoliyatida samarali tashkil etishda o'quv motivlarining ahamiyati muhim ekanligini ta'kidlab, anglanilgan motivlar yordamida o'qitishni sifatli tashkil etishni amaliyotga keng joriy qilish mumkinligini ko'rsatib o'tgan³.

N.S.Safayev yoshlarda o'zligini anglashning haqida tadqiqotlar olib borib, talabalar shaxsida mavjud ma'naviy ehtiyojlar yordamida rivojlantirish muhimni qonuniyatlari psixologik izlanishlar asosida izohlashga intiladi. Bundan tashqari, muallif shaxsda ro'y beradigan salbiy o'zgarishlarni nazorat qilish va boshqarish muammolarini o'rganib, ularning ma'naviy ehtiyojlari to'g'ri rivojlantirish orqali o'z-o'zini anglashni kuchaytirish haqida keng to'xtalgan⁴.

¹ Jabborov A. M. O'qituvchi etnopsixologiyasi. –Qarshi: "Nasaf". –2015. –180 b.

² Barotov Sh. R. Psixologik xizmat. –T. 2018. –346 b.

³ Nishanova Z.T. va boshq. Psixologik xizmat. –T.: 2014. –424 b.

⁴ Safayev N.S. Psixologicheskiye osobennosti natsionalnogo samosoznaniya studencheskoy molodyoji: Dis.d-ra. psix.nauk. – T.: UzNU, 2005. – 159 s.

D.G.Muxamedova boshqarish menejmentining muhim zamonaviy xususiyatlari haqida to'xtalib, mehnat faoliyatida shaxs o'zini-o'zi boshqarishda ma'naviy ehtiyojlarini o'rnini haqida batafsil to'xtalib o'tgan. Muallif jamoani boshqarish rahbarning yuksak ma'naviyat egasi bo'lishligi, ichki regulyativ kuchni boshqarishda shaxs ehtiyojlarini ahamiyati to'g'risida kengroq to'xtalib o'tgan⁵.

R.S.Samarov maqolasida turli faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarda yolg'on axborotlar qabul qilish jarayonida ularning axborot xavfsizligini ta'minlash va himoya mexanizmlariga doir mulohazalar bildirgan. Muallif ma'naviy ehtiyojlar ya'ni axborotga nisbatan moyillikni to'g'ri qondirish, shuningdek, shaxsning to'g'ri qaror qabul qilish va o'zini-o'zi boshqarishda ma'naviy ehtiyojning o'rnini beqiyos ekanligini alohida ta'kidlaydi⁶.

Xulosa.

1. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatayaptiki, mamlakatimizda shaxs ma'naviy ehtiyojlari va uning transformatsiyasi muammosi juda dolzarb bo'lib, bugungi kunda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmayapdi.

2. Respublikamizda shaxs ma'naviy ehtiyojlarining bugungi holatiga tavsif berishga oid yuqorida bayon etilgan barcha tahlillarimiz xotimasi mamlakatimizda ma'naviy ehtiyojlarining transformatsiyasi konsepsiyasini yaratish va rivojlantirish bilan bog'liq asosiy yo'nalishlarni belgilashni taqozo etadi. Chunki bu tizimining mamlakatimiz miqyosidagi keng qamrovli ilmiy-amaliy yo'nalishlarini belgilamay turib, Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga molik ijtimoiy-psixologik muammolarni bartaraf etib bo'lmaydi. Shunga muvofiq, barcha sohalaridagi hozirgi zamon ilg'or psixologik adabiyotlarga va tadqiqotlarga tayanib shaxs ma'naviy ehtiyojlar transformatsiyasining asosiy amaliy yo'nalishlari va uning ilmiy-tashkiliy ish jihatlari o'rganish borasida ma'lum izlanishlar olib borilishi lozim.

⁵ Muhamedova D.G. Menedjment v obrazovanii: aspekti soderjaniya podgotovki kadrov // Pedagogik ta'lim. – Tashkent.: –№3. 2013. –S.17-21.

⁶ Samarov R. Qodirov U. Shaxsning psixologik himoyasi – barqarorlikni ta'minlash asosi // Ta'lim muammoari. T.; 2010, 1-son, –B.52

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. - <https://lex.uz/uz/docs/5793261>
2. Sattarov E.N. Alimov X.M. Boshqaruv muloqoti. - T. 2004.107- b.
3. Ибрагимов Ш. Наша реальность и как её изменить. - Бишкек. 2008.178 б.
4. G'oziyev E. G', Jabborov A. M. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. –T.: 2003. - B.55.
5. Saitova A.Q. O'smir yoshidagi o'quvchilarning o'quv motivlarini va qadriyatlarini o'rganish. Toshkent, 2000. -B.133
6. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.- 488 b.
7. Fayzullayev A.A. Motivatsionnaya samoregulyatsiya lichnosti. -Tashkent. Fan, 1987, -S.133
8. Usmanova E.Z. Motivatsionno-emotsionalnaya regulyatsiya mishleniya v usloviyax intellektualnogo konflikta. –Tashkent. O'qituvchi, 1993. -s.100
9. Haydarov F.I. Qishloq maktabi o'quvchilarida o'qish motivlarining shakllanishi. -Toshkent, 1987. -B.133
10. Shoumarov G'.B. O'zbekiston ta'lim tizimida psixologik xizmat muammolari. –T.: 1998. -B.13-15.
11. Karimova V.M. Salomatlik psixologiyasi. - T.: Yangi asr avlodi. 2005. -71 b.
12. Jabborov A. M. O'qituvchi etnopsixologiyasi. – Qarshi.: "Nasaf". –2015. -180 b.
13. Barotov Sh. R. Psixologik xizmat. –T. 2018. -346 b.
14. Nishanova Z.T. va boshq. Psixologik xizmat. –T.: 2014. - 424 b.
15. Safayev N.S. Psixologicheskiye osobennosti natsionalnogo samosoznaniya studentcheskoy molodyoji: Dis.d-ra. psix.nauk. – T.: UzNU, 2005. -159 s.
16. Muhamedova D.G. Menedjment v obrazovanii: aspekti sodержaniya podgotovki kadrov // Pedagogik ta'lim. –Tashkent.: –№3. 2013. -S.17-21.
17. Samarov R. Qodirov U. Shaxsning psixologik himoyasi – barqarorlikni ta'minlash asosi // Ta'lim muammoari. T.; 2010, 1-son, -B.52